



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

### “Sharq taronalari” XIII Xalqaro musiqa san’ati festivali doirasida o’tkaziladigan “Sharq xalqlari musiqa madaniyati: globallashuv jarayonlarida ijodiy uyg‘unlashuv tamoyillari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

#### AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-maydag‘i “Sharq taronalari” XIII Xalqaro musiqa san’ati festivalini o’tkazishga tayyorgarlik ko‘rish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 41-son majlisi bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 2024-yil 4-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisi bayoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 301-son buyrug‘iga muvofiq, joriy yilning 25-30-avgust kunlari Samarqand shahridagi “Boqiy shahar” majmuasida “Sharq taronalari” XIII Xalqaro musiqa san’ati festivali” bo‘lib o‘tadi.

“Sharq taronalari” XIII Xalqaro musiqa san’ati festivali tashkiliy qo‘mitasi Sizlarni festival doirasida 27-28-avgust kunlari o’tkaziladigan, Sharq xalqlari musiqa madaniyati asoslari va rivojining globallashuv jarayonlarida ijodiy uyg‘unlashuv tamoyillari masalalariga bag‘ishlangan “**Sharq xalqlari musiqa madaniyati: globallashuv jarayonlarida ijodiy uyg‘unlashuv tamoyillari**” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga taklif qiladi.

Konferensiya mavzu yo‘nalishlari:

1. Sharq xalqlari mumtoz musiqa ijodiyotida umummilliylar an’analarning mushtaraklik jihatlari;
2. Musiqa ijrochiligining zamonaviy jarayonlarida ijodiy uyg‘unlashuv tamoyillari;
3. Sharq xalqlari musiqa madaniyatining globallashuv jarayonlari yoshlar nigohida.

Ishtirok etish shakli: ma’ruza (15 daqiqagacha), prezentatsiya, videomateriallarning taqdimoti.

O‘zbek, rus, ingliz tillari **Anjumanning ishchi tillari** etib belgilangan.

Konferensiya ishida **onlayn** yoki **offplayn** tarzda ishtirok etish mumkin.

Anjumanda so‘zga chiquvchilar ma’ruzalarning to‘la matnini belgilangan muddatda anjuman Tashkiliy qo‘mitasiga taqdim etadilar. Taqdim etiladigan matnlar:

- A4, Word formatida 5-6 bet;
- Times New Roman shriftida, 14 kegl, satrlar oralig‘i – 1,5 sm;
- sahifalar chapdan va yuqoridan 2,5 sm, pastdan va o‘ngdan 2 sm;
- adabiyotlar ro‘yxati alifbo ketma-ketligida asosiy matndan so‘ng beriladi;
- adabiyotlarga ko‘rsatkichlar kvadrat qavs ichida ikki nuqta bilan ajratiladi, bunda birinchi raqam – adabiyotning ro‘yxatdagi ketma-ketlik raqamini, ikkinchi raqam esa adabiyot sahifasini bildiradi, masalan: [5: 98];
- iqtiboslar (snoskalar) matn ichida beriladi;
- rasm, grafik chizmalar, nota misollari alohida faylda, rasm formatida (jpg, 300 dpi);
- kalit so‘zlari (10 tadan ko‘p bo‘lmagan);
- qisqa annotatsiya bo‘lishi lozim.

Ma’ruza matninining birinchi qatorida sahifaning o‘rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi, ikkinchi qatorda muallifning ism-sharifi, uchinchi qatorda muallifning davlati, ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni yoziladi, to‘rtinchchi qatordan matn boshlanadi (*Ilova №1*).

Tashkiliy qo‘mita yuqoridagi talablarga javob bermagan maqolalarni rad etish huquqiga ega.

Anjumanda ishtirok etish uchun anketalar (*Ilova №2*) to‘ldirilishi hamda materiallarni 2024-yilning 10-avgust kuniga qadar anjuman Tashkiliy qo‘mitasining elektron manziliga – [sharqtaronalari2024@uzmmsi.uz](mailto:sharqtaronalari2024@uzmmsi.uz) yuborilishi lozim.

### *Ilova №1*

#### **MAQOLANING NOMI**

**Abdullaev Rustam Samigovich**

**O‘zbekiston, Yu.Rajabiy nom. O‘zMMSI, s.f.d., professor**

Matn.....

.....

.....

.....

*Ilova № 2*

Ismi	tug‘ilgan sanasi	jinsi	
<b>Konferensiya ishtirokchisi manzili:</b>			
<i>shahar</i>	<i>viloyat</i>	<i>indeks</i>	<i>davlat</i>
<b>Telefon:</b> _____			
<b>Mobil:</b> _____			
<b>Web:</b> _____			
<b>E-mail:</b> _____			
Uchadigan Aeroporti: _____			
<ul style="list-style-type: none"><li>• Ma’ruza tezisi (kamida 300 ta so‘z)</li><li>• Ma’ruza to‘liq matni 5-6 sahifada;</li><li>• Tarjimai hol;</li><li>• Yuqori sifatdagi portret fotosurati;</li></ul>			
Arizachi imzosi _____			